

TARIX FANINI BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSION SHAKLDA TASHKIL ETISH

Sabitova Kamola Furkatovna

**Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedaagogika
universiteti mustaqil tadqiqotchisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20390435>

ANNOTATSIYA

Maqolada fanlararo integratsiyaning pedagogik ahamiyati, metodik jihatlari va o'quv jarayonida qo'llash yo'llari ko'rib chiqiladi. tarixni adabiyot, geografiya, matematika, san'at, tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan bog'lab o'qitishning nazariy asoslari va amaliy usullari yoritilgan. Asosiy e'tibor tarixni boshqa fanlar kontekstida o'rganish orqali o'quvchilarda mantiqiy, tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan. Maqolada turli fanlar bilan bog'liq misollar (masalan, adabiy asarlar orqali tarixni tahlil qilish, geografik xaritalar va statistika ma'lumotlaridan foydalanish, san'at va me'morchilik yodgorliklarini o'rganish) keltirilgan. Ishning amaliy qismida integratsion darslar tuzish, loyihalar va interfaol mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: tarix, fanlararo integratsiya, interdisiplinar yondashuv, pedagogik metodlar, o'qitish texnologiyalari, adabiyot-tarix aloqasi, geografik-tarixiy tahlil, matematik-statistik usullar, san'at va me'morchilik tarixi,

АННОТАЦИЯ

В статье будут рассмотрены педагогическое значение, методические аспекты междисциплинарной интеграции и пути ее применения в образовательном процессе. освещаются теоретические основы и практические методы преподавания истории в сочетании с литературой, географией, математикой, искусством, естественными и общественными науками. Основное внимание уделяется развитию у учащихся логического, критического и творческого мышления путем изучения истории в контексте других дисциплин. В статье приведены примеры, относящиеся к различным дисциплинам (например, анализ истории с помощью литературных произведений, использование географических карт и статистических данных, изучение памятников искусства и архитектуры). В практической части работы даны рекомендации по составлению интеграционных занятий, организации проектов и интерактивных занятий.

Ключевые слова: историческая наука, междисциплинарная интеграция междисциплинарный подход, педагогические методы технологии обучения, литературно-историческая коммуникация, географо-исторический анализ, математико-статистические методы, история искусства и архитектуры.

ANNOTATION

The article describes the pedagogical significance of interdisciplinary integration, methodological aspects and ways of application in the educational process are considered. theoretical foundations and practical methods of teaching history in connection with literature, geography, mathematics, art, natural and social sciences are covered. The focus is on developing logical, critical and creative thinking in students by studying history in the context of other disciplines. The article presents examples related to various disciplines (e.g. analysis of history

through literary works, use of geographic maps and Statistics, study of monuments of art and architecture). In the practical part of the work, recommendations are given on the formation of integrative lessons, the organization of projects and interactive training.

Keywords: history science, interdisciplinary integration, interdisciplinary approach, pedagogical methods teaching technologies, literature-history communication, geographical-historical analysis, mathematical-statistical methods, history of art and architecture.

So‘ngi yillarda yurtimizning barcha sohalaridagi kabi ta‘lim-tarbiya sohasini hamtubdan isloh qilishga qaratilgan chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi sohasida kompetensiyaviy yondashuvning joriy qilinishi va unga asoslangan davlat ta‘lim standartlarini ishlab chiqilishi shular jumlasidandir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning “Yana bir muammoni hal etish o‘ta muhim hisoblanadi: bu pedogoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta‘lim olish, ma‘naviy ma‘rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur”¹ deb ayatgan fikrlari bugunda o‘z tasdig‘ini topmoqda. Endilikda zamonavi darslarini o‘tishga va o‘qituvchilariga qo‘yiladigan talablar o‘zgarimoqda. O‘zbekiston Respublikasida ta‘limning uzluksizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilganligidan kelib chiqqan holda, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limida o‘qitiladigan umuta‘lim fanlari mazmunining izchilligini ta‘minlash maqsadida tayanch kompetensiyalar hamda har bir o‘quv fani mazmunidan kelib chiqqanholda xususiy kompetensiyalar belgilab olindi.²

Bugungi kunda ta‘lim jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish dolzarb masalalardan biridir. Xususan, tarix fanini boshqa fanlar bilan integratsion tarzda o‘qitish o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, tarixiy bilimlarni chuqurroq anglashga imkon yaratadi va ularning kompleks tafakkurini shakllantiradi.³ Integratsiya – bu turli fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berish, ularni uyg‘unlashtirgan holda bilim berish usulidir.⁴ Tarix fani o‘zining mazmuni, voqealarni tahlil qilishga asoslangan xususiyati bilan boshqa ko‘plab fanlar bilan uzviy bog‘liqdir. Fanlararo integratsiya—bu turli fanlarning o‘zaro bog‘lanishi va bir-birini to‘ldirishi orqali bilimlarni chuqurroq va qiziqarli tarzda o‘zlashtirish imkonini beradi. Tarixni matematika, geografiya, adabiyot, san‘at, ijtimoiy fanlar va hatto tabiiy fanlar bilan birlashtirish orqali o‘quv jarayoni samarali va qobiliyatli bo‘lishi mumkin. Masalan:

- Adabiyot: Adabiy asarlar tarixiy voqealarni aks ettiradi. Masalan, Alisher Navoiy asarlari orqali Temuriylar davri madaniyati va siyosiy hayotini tushuntirish mumkin. Bu yondashuv o‘quvchilarga davr his qilish imkonini beradi.
- Geografiya: Tarixiy voqealarning sodir bo‘lgan joyini xarita asosida ko‘rsatish, davlatlar o‘rtasidagi urushlar, hududiy o‘zgarishlar va iqlim omillarining tarixiy jarayonlarga ta‘sirini o‘rganish orqali o‘quvchilarning fazoviy tafakkuri rivojlanadi.

1 Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.

2 Qodirov, F." Tarix darslarida fanlararo aloqalardan foydalanish". «Ta‘lim va innovatsiyalar» jurnali, №4, 2021. 45-49-betlar.

3 Abdullayev, R. "Fanlararo bog‘lanishlar va zamonaviy ta‘lim metodologiyasi"*. Toshkent: «O‘qituvchi», 2020.

4 Jo‘rayev, M."Tarixni integratsiyalashgan holda o‘qitishning nazariy asoslari"*. Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. Toshkent, 2019.

- Iqtisodiy: Tarixiy davrlarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, savdo yo'llari (masalan, Buyuk Ipak Yo'li), soliqlar tizimi va iqtisodiy inqirozlar tarixiy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Bu esa tarixni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.
- Huquqshunoslik: Davlat boshqaruvi, qonunchilik, tarixiy konstitutsiyalar va inson huquqlarining tarixiy rivoji kabi masalalarni o'rganish orqali o'quvchilar zamonaviy huquqiy tizimlarning ildizlarini anglaydi.
- San'at va madaniyat: Tarixiy davrlarga oid me'moriy obidalar, san'at asarlari, haykaltaroshlik va boshqa madaniy yodgorliklar orqali o'quvchilar tarixiy estetikani his etishadi.
- Axborot texnologiyalari: Multimedia vositalari, tarixiy xaritalar, raqamli manbalar, virtual sayohatlar va interaktiv testlar tarix darslarini jonlantiradi va dars samaradorligini oshiradi.⁵

Tarix fanini integratsion yondashuv asosida o'qitish ta'lim jarayonining mazmunan boyishini, o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi va tahlil qilish ko'nikmalarining rivojlanishini ta'minlaydi. Bunday yondashuv orqali tarix fani nafaqat ma'lumot beruvchi, balki o'rgatuvchi, fikrlantiruvchi va tarbiyalovchi fan sifatida o'z o'rnini mustahkamlaydi.⁶ Tarix fanini o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish, uning boshqa fanlar bilan bog'liqligini ochib berish va o'quvchilarda kompleks tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Tarixiy voqealar va adabiy asarlar o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjud. Har bir davrning o'ziga xos adabiy merosi bor bo'lib, u orqali o'sha davrning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayoti haqida tushuncha olish mumkin. Boburnoma" asari orqali Bobur davridagi Hindiston va Movarounnahr tarixini o'rganish."Qutadgu bilig" yoki "Devonu lug'otit turk" kabi asarlar orqali turkiy xalqlar madaniyati va tarixini tahlil qilish. Tarixiy jarayonlarni geografik omillarsiz tushunish qiyin. Yer shakllari, iqlim, tabiiy resurslar tarixiy voqealarga bevosita ta'sir ko'rsatgan Buyuk Ipak yo'lining geografik ahamiyati va uning madaniyatlararo almashinuvdagi o'rni. Daryolar (Nil, Dajla, Frot) bo'yida qadimiy tsivilizatsiyalarning paydo bo'lishi. Tarixda statistik ma'lumotlar, yilliklar va xronologik hisoblar muhim o'rin tutadi. Matematik usullar yordamida tarixiy jarayonlarni aniqroq tahlil qilish mumkin. Aholi o'sishi, iqtisodiy ko'rsatkichlarni grafiklarda ko'rsatish Tarixiy sanalarni hisoblash (masalan, hijriy va milodiy yillarni solishtirish).⁷

San'at asarlari orqali turli davrlarning ruhiyati va estetik qadriyatlarini o'rganish mumkin. O'rta asrlar miniatyuralari orqali turmush tarzini o'rganish. Me'morchilik yodgorliklari (Registon, Qal'ai Humayun) tarixini o'rganish. Tarix fanini boshqa fanlar bilan integratsion o'qitish, o'quvchilarda ko'p qirrali fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. Bu yondashuv nafaqat bilimlarni mustahkamlaydi, balki o'quv jarayonini qiziqarli va hayotiy lashtiradi. Fanlararo bog'lanishlarni sinf darslarida qo'llash orqali tarixni faol va innovatsion tarzda o'rgatish mumkin.⁸ Zamonaviy ta'lim tizimida fanlararo integratsiya keng qo'llanilmoqda. Tarixni boshqa fanlar bilan bog'lash nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularga dunyoni tizimli va kompleks tushunish imkoniyatini beradi. Bu maqolada tarix fanini adabiyot, geografiya, matematika, san'at, tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan integratsiyalashdirishning ilg'or usullari va amaliy misollari ko'rib chiqiladi. Tarix va adabiyot o'rtasidagi bog'lanish insoniyatning madaniy merosini tushunishda asosiy rol o'ynaydi. "Shohnoma"asari orqali Eron shohlari tarixi va afsonalarni o'rganish.

5 Qodirov, F." Tarix darslarida fanlararo aloqalardan foydalanish". «Ta'lim va innovatsiyalar» jurnali, №4, 2021. 45-49-betlar.

6 UNESCO. Interdisciplinary Teaching in Secondary Education: A Global Perspective*. Paris: UNESCO Publishing, 2022.

7 Karimov, I. O'zbekistonda tarix ta'limining rivojlanishi . Toshkent: «Sharq», 2017.

8 Mirziyoyev, Sh. "Fanlararo yondashuv asosida kreativ ta'lim" «Pedagogik tadqiqotlar» elektron jurnali, 2023. [URL: www.pedres.uz]

"Alpomish" dostonini o'rganish orqali qadimgi turkiy qabilalarning hayoti va urushlari haqida bilim olish. Zamonaviy adabiyotda tarixiy romanlar (masalan, "Sariq devni minib" romanida Amir Temur davri tasvirlangan).⁹

Tarixiy shaxslar haqida hikoya yozish (masalan, Jaloliddin Manguberdi yoki Navoiy hayoti). Tarixiy voqealar asosida qisqa spektakllar tashkil qilish. Buyuk Ipak yo'li – qadimgi savdo yo'llarini xaritada belgilash va uning madaniyatlararo aloqadagi o'rni. Daryo bo'yi tsivilizatsiyalari (Nil, Mesopotamiya) – suv resurslarining davlat taraqqiyotiga ta'siri. Yerlarning o'zgarishi (masalan, O'rta Osiyoning qurg'oqchiligi va ko'chmanchilar hayoti). GIS texnologiyalari yordamida tarixiy xaritalar tuzish. Tarixiy harbiy strategiyalarni geografik jihatdan tahlil qilish (masalan, Iskandar Zulqarnayning yurishlari). Tarixiy hodisalarni statistik jihatdan tahlil qilish ularni aniqroq tushunishga yordam beradi. Aholi statistikasi – XIX asrda O'rta Osiyoda aholining ko'chishi va uning sabablari. Iqtisodiy ko'rsatkichlar – XIV asrda Temuriylar davridagi soliq tizimi va davlat byudjeti. Xronologik jadvallar– turli davlatlarning mustaqillik yillari va ularni solishtirish.

Tarix fanini boshqa fanlar bilan integratsiyalashdirish zamonaviy ta'limning eng samarali usullaridan biridir. Bu yondashuv orqali: Tarixni chuqurroq va qiziqarli o'rganish mumkin bo'ladi. O'quvchilarda fanlararo bog'lanishlarni tushunish qobiliyati rivojlanadi. Ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. Darslar interfaol va amaliy ahamiyatga ega bo'ladi. Har bir darsda kamida bitta fanlararo bog'lanishni kiritish (masalan, tarixni geografiya, adabiyot yoki san'at bilan bog'lash). Loyihalar va interfaol usullardan foydalanish (virtual ekskursiyalar, tarixiy rekonstruksiylar, badiiy loyihalar). O'quvchilarni faol ishtirok ettirish (munozaralar, rolli o'yinlar, tarixiy hodisalarni simulatsiya qilish). Natijada, tarix darslari nafaqat qat'iy bilimlar beradigan, balki o'quvchilarga dunyoni tizimli va ravon tushunishga yordam beradigan muhim fanga aylanadi. Fanlararo integratsiya tarixni "o'tmish haqidagi quruq ma'lumotlar" emas, balki "hayotning o'zi" sifatida ko'rsatishga imkon beradi. Natijada, tarix darslari nafaqat qat'iy bilimlar beradigan, balki o'quvchilarga dunyoni tizimli va ravon tushunishga yordam beradigan muhim fanga aylanadi. Fanlararo integratsiya tarixni "o'tmish haqidagi quruq ma'lumotlar" emas, balki "hayotning o'zi" sifatida ko'rsatishga imkon beradi. "Tarix – nafaqat o'tmish, balki kelajakni tushunish kalitidir. Tarix fanini boshqa fanlar bilan integratsion tashkil etish — bu ta'lim samaradorligini oshirishda muhim yondashuvlardan biridir.

Xulosa: Tarix fanini boshqa fanlar bilan integratsion tashkil etish o'quvchilarning bilimni chuqurlashtiradi, ularning tahliliy fikrlashini, fanlararo bog'liqlikni tushunishini kuchaytiradi. Bu yondashuv nafaqat tarixiy voqealarni yaxshiroq anglashga, balki o'quvchilarda keng dunyoqarash va kompleks fikrlash malakasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, integratsion yondashuv zamonaviy ta'limda dolzarb va samarali hisoblanadi. Tarix fanini boshqa fanlar bilan integratsion asosda o'qitish bugungi kunda ta'lim tizimida dolzarb va zarur yondashuvlardan biridir. Bunday yondashuv o'quvchilarga tarixiy voqealarni faqatgina sanalar va faktlar to'plami sifatida emas, balki ularning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ilmiy jihatlar bilan uzviy bog'liqligini anglashga yordam beradi. Masalan, geografiya bilan integratsiya tarixiy hodisalarning hududiy omillarini, adabiyot bilan esa o'sha davrda yashagan insonlarning dunyoqarashini tushunishga imkon yaratadi.

Shuningdek, san'at va falsafa fanlari bilan uyg'unlikda o'qitilgan tarix darslari o'quvchilarda estetik did, mantiqiy fikrlash, tahliliy yondashuv kabi muhim kompetensiyalarni shakllantiradi. Bu esa yosh avlodni har tomonlama yetuk, keng dunyoqarashli va tarixiy ongga ega shaxslar etib tarbiyalashga xizmat qiladi. Integratsion o'qitish metodikasi o'qituvchidan ijodkorlik, yangicha

⁹ Sobirov, B. "Matematik usullar tarixiy tadqiqotlarda". Toshkent: «Fan», 2019.

yondashuv va darsni rejalashtirishda tizimlilikni talab etadi. Shu bilan birga, bu yondashuv ta'lim sifatini oshiradi, fanlararo bog'liqlikni mustahkamlaydi hamda o'quvchilarda mustahkam tarixiy bilim asoslarini shakllantiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta'lim sifatini oshirish va fanlararo integratsiyani kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. – 2021
3. Abdujabborov A. Tarixni o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. Mamatqulov Sh., Jo'rayev B. Tarix darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2020.
5. Turaev A. Fanlararo integratsiya: nazariya va amaliyot. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
6. UNESCO. Interdisciplinary teaching and learning in schools: A practical guide. – Paris, 2018.
7. Vahobova D. Pedagogik innovatsiyalar va integratsion yondashuvlar. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.
8. Xalq ta'limi vazirligi. Tarix fani o'quv dasturi (5–11-sinflar uchun). – Toshkent, 2023.
9. Sabitova K. Determination and assessment of students' basic competence level in school education. Society and innovations Special Issue – 10 (2023) / ISSN 2181-1415 220 b